



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> June 2025

## **INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOT TAHLILINING OBYEKТИV ZARURLIGI**

Jumayeva G. J.

Qarshi davlat texnika universiteti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada investitsion faollikni oshirishda moliyaviy hisobot tahlilining obyektiv zarurligi, moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida tuzishning o‘ziga xos xususiyatlari, tahlilning natijalaridan foydalanishning afzalliklari va nazariy asoslari haqidagi ilmiy qarashlar bayoni keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** rivojlanish, axborot, moliya, hisobot, standart, tahlil, ko‘rsatkich, samaradorlik, investitsiya.

### **OBJECTIVE NECESSITY OF FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS IN INCREASING INVESTMENT ACTIVITY**

Jumayeva G.J.-Karshi state technical university

professor of the department of “Accounting and Auditing”

### **Annotation**

This article presents a statement of scientific views on the objective necessity of financial statement analysis in increasing investment activity, the specific features of compiling financial statements based on international standards, the advantages and theoretical foundations of using the results of the analysis.

**Keywords:** development, information, finance, reporting, standard, analysis, indicator, efficiency, investment.

Mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va zamonaviy iqtisodiyot asoslarini yaratishda tarmoqlarda faoliyat olib borayotgan korxonalarining mavjud salohiyatidan hamda imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, mablag‘larini to‘g‘ri



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> June 2025

boshqarish alohida ahamiyatga ega. Bunday muhim vazifalarni bajarishda korxonalarining ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining yakuniy natijalari ifodalangan moliyaviy hisobotlarini chuqur tahlil qilish va bu jarayonlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, moliyaviy hisobotlar bugungi iqtisodiyot sharoitida barcha foydalanuvchilarni moliyaviy axborotga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qilishi va tegishli tartibda vaqt-vaqt bilan taqdim etilganligi uchun ham foydalanuvchilar uchun axborot manbasidir. Investitsiyalarni jalb qilish, kreditlar ajratishda tegishli qarorlarni qabul qilish, joriy va kelgusida kutilayotgan pul mablag‘lari oqimini oldindan baholash, moliyaviy sherikchilikda majburiyatlarni tashxislash asosiy vazifalardan bo‘lib, bunda baholash va tashxislash ishlari faqat hisobot shaklidagi umumlashgan ko‘rsatkichlari haqidagi ma’lumotlarini o‘rganishda ta’minlanadi.

Xususan, moliyaviy hisobot tahlilida hisobot shakllarida ifodalangan ko‘rsatkichlar va ularning o‘zgarish tendensiyalari, o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi omillar iqtisodiy tahlilning metod va uslublari yordamida bo‘laklarga bo‘lib o‘rganiladi, tahlil natijalari qarorlar qabul qilish, moliyaviy imkoniyatlarini baholash maqsadida umumlashtiriladi va xulosalanadi. Shunday ekan, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va erkinlashtirish jarayonlarida belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta’minalashda mamlakatda investitsion faollikni yanada oshirish, xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish jarayonida moliyaviy hisobot tahlilini amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, nazariy manbalari tahlili “Yangicha ish yuritish, jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamkor tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi”[1].

Bunda, “Moliyaviy hisobotlar axborot foydalanuvchilarining keng doirasi uchun:

- investitsiyalar bilan bog‘liq xatarlar, dividendlarni to‘lash, aksiyalarni sotib olish, saqlash yoki sotish haqidagi;
- kreditlar va foiz to‘lovlar haqidagi;
- mol yetkazib beruvchilarga tegishli bo‘lgan summalarining o‘z vaqtida to‘lanishi haqidagi;
- uzluksiz faoliyati to‘g‘risidagi;
- faoliyat barqarorligi va rentabelligi to‘g‘risidagi;



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> June 2025

- resurslarning taqsimlanishi, faoliyatni tartibga solib turilishi, soliqqa tortish, milliy daromadni hamda boshqa statistik ma'lumotlarni shakllantirish to'g'risidagi;
- rivojlanish, taraqqiyot va farovonlikka erishish yuzasidan erishilgan so'nggi yutuqlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlaydi”[2].

Milliy iqtisodiyotimizda ushbu yo'nalishda bir guruh iqtisodchi olimlar tomonidan yaratilgan nazariy manbalar diqqatga sazavor bo'lib, ularning aksariyati “Moliyaviy tahlil” faniga bag'langanligi va sohaga tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining fan dasturlari asosida tayyorlanganligi bilan ajralib turadi.

Ammo, tadqiqoqtlarimiz ko'rsatadiki, tahlil ishlarining samarasi moliyaviy hisobotlarning belgilangan talablar asosida tayyorlanganligi, hisobot shakllarida ifodalangan ko'rsatkichlarining to'liqligi, to'g'ri va aniqligiga bevosita bog'liqligi hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish jarayonlarining jadallahushi nafaqat hisob va auditni balki, hisobot tahlilini ham xalqaro standartlar asosida tashkil etishni va uning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslarini sohaga tegishli magistratura mutaxassisliklarida ham o'qitishni taqazo etadi.

Xususan, amaldagi huquqiy asoslarda, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o'rinnarda — MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish”[3] bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Ushbu ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda, aynan, oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ularning bandligini ta'minlashda hududlarning salohiyati va imkoniyatlarini, xususan, kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda sohaga tegishli adabiyotlarning zamonaviy avlodini yaratib borish katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan ham rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda investitsion faollikni oshirish axborot muhitini yaratish, unda ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish zaruratini yuzaga chiqaradi va ushbu jarayonda moliyaviy hisobot tahlilidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> June 2025

---

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibrohimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. 3-qayta to‘ldirilgan nashri.-T.: “Iqtisod-moliya”, 2013. 295-bet.
2. Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. 3-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son QARORI. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

.